



ONA TILI DARSLARIDA METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Samarqand davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Ismatova Muhabbat Alibek qizi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori (DSc) Ozoda Anorqulova

ANNOTATSIYA: Maktablarda ona tili fanidan dars mashg‘ulotlari o‘tayotgan paytda qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan e‘tiborini oshiradi va mavzuni oddiy dars mashg‘ulotlariga qaraganda o‘zlashtirishini yanada oshiradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, metod, maktab, sinfxona, o‘yinlar, innovatsion, o‘quvchi, dars, interfaol, samarali, mavzu

АННОТАЦИЯ В данной статье представлены различные методики, дидактические материалы и энергетические средства, применяемые в науке о родном языке и литературе и повышающие активность учащихся.

Ключевые слова: методы, инновационные, студент, урок, интерактив, эффективный, тема

ABSTRACT This article presents various methods, didactic materials and energizers used in the science of mother tongue and literature, which increase students' activity.

Keywords: methods, innovative, student, lesson, interactive, effective, topic

Bugungi rivojlanib ketayotgan zamonda zamon bilan hamnafaslikda yashash har birimizning nafaqat burchimiz balki shu zamon talabi hamdir. Shuni inobatga



olgan holda yurtboshimiz biz yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ayniqsa ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratmoqda.

Maktablarda o‘quvchilarning yaxshi bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan. Sinfxonalarini zamonaviy o‘quv jihozlari bilan jihozlangan. Bizdan talab qilinadigan yagona narsa esa mana shu sharoitlardan oqilona foydalangan holda yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarga yuqori saviyali bilim berishimiz kerak. O‘quvchilarga har darsda bir xil dars o‘tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo‘lgan e’tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg‘ulotlari jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini oshiradi.

Yangi mavzuni boshlashdan oldin albatta o‘tilgan mavzu takrorlanadi. O‘tilgan mavzuni takrorlashda oddiy savol-javobdan foydalanmasdan buni qiziqarliroq qilib tashkillashtirish mumkin. Bunda “Mo‘jizalar maydonchasi” usulidan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarning o‘rniga qarab uch guruhga ajratib olinadi. Har bir guruhga alohida o‘tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Har bir guruhdan savolga birinchi bo‘lib javob bergan uch o‘quvchi doskaga taklif qilinadi.

O‘qituvchi doskaga o‘tilgan mavzuga aloqador atamaning harflariga teng katakchalar chizadi. Birinchi chiqqan o‘quvchi o‘zi istagan katakchani ochadi. Agar birinchi ochilgan katakchadayoq qaysidir o‘quvchida javob tayyor bo‘lsa javobni aytishi yoki keyingi o‘quvchi boshqa bir katakchani ochishni davom ettirishi mumkin. Harflarni ochishda o‘quvchilarga savol berilmaydi. O‘quvchi navbat bilan o‘zi istagan katakchani ochishni so‘raydi. Atama topilgunga qadar o‘yin davom ettiriladi. Kichik sinf o‘quvchilarida charchash va buning natijasida darsdan zerikish holatlari kuzatiladi. Bunday paytda mavzudan biroz chekinga holatda ammo darsdan chiqib ketmagan holda o‘quvchilarning diqqatini tortish



lozim. Bu jarayonda “So‘zdan so‘z yasash” o‘yinidan foydalansak bo‘ladi. Bu o‘yin o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga, qayta xotirlashga va mantiqan fikrlashni kengaytirishga undaydi. Yozuv taxtasiga o‘qituvchi tomonidan bir so‘z yozib qo‘yiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi ma‘lum vaqt davomida ana shu so‘z harflaridan foydalangan holda boshqa so‘z yasashlarini aytadi. Belgilangan vaqtda qaysi o‘quvchi ko‘proq so‘z yoza olgan bo‘lsa shu o‘quvchi g‘oliblikni qo‘lga kiritadi. Masalan, zanjir – zar, zira, arz, ariza, jar, ranj.

“Ustunchalar“ o‘yini yaqin o‘tgan mavzularni qayta xotirlash va mustahkamlash, chaqqonlik va tez fikrlay olish qobiliyatlarini o‘stirish uchun ayni qo‘l keluvchi o‘yindir. O‘quvchilar daftar varag‘ini istagingizga qarab 2, 3, 4 yoki 5 ta ustunchaga bo‘lishadi. Ustunchalar boshiga mavzu nomi yozib qo‘yiladi. Har bir ustunchaga belgilashingizga qarab 5 tadan yoki 7 tadan mavzuga oid atama yozish kerak bo‘ladi. Birinchi bo‘lib bo‘lgan uch o‘quvchini yozuv taxtasiga taklif qilasiz. Ular barchasini to‘g‘ri va xatosiz bajarishgan bo‘lsa qo‘shimcha baho bilan siylashingiz mumkin.

«Sirli sandiqcha» metodi. Sirli sandiqcha metodi ham o‘quvchining mantiqiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu metoddan foydalanish uchun o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi doskaga 4 ta mavzu nomini ilib ular haqida hech qanday ma‘lumot yozmaydi. Masalan, So‘z turkumlarini mavzusi o‘tilganda Ot, Sifat, Son, Fe‘l kabi. Sirli sandiqchada esa so‘z turkumlariga oid ma‘lumotlar, misollar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar bu ma‘lumotlar qaysi so‘z turkumiga tegishli bo‘lsa qog‘ozni shu so‘z turkumi tagiga qistirib boradi. O‘qituvchi bajarilgan ishni tahlil qiladi va rag‘bat kartochkalari beradi. Eng ko‘p rag‘bat kartochkasi to‘plagan guruh g‘olib bo‘ladi.

«Raketa» o‘yini. Doskaga raketa rasimi chiziladi, yoki, uchta raketa yasab savollar yoziladi kartochkalar ilinadi, Raketa o‘zga sayyoraga uchish uchun yuklardan xoli bo‘lishi kerak o‘quvchilarga uch guruhga bo‘linadi, qaysi guruh



a`zolarisavollarga to`g`ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi, to`g`ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u ucha olmaydi.

«Baliq ovi» o`yini. Doskaning bir tomoniga dengiz rasimi, ikkinchi tomoniga akvarium rasimi tushiriladi. Dengizda baliqlar bo`ladi. O`quvchi dengizdagi baliqlardan birini tutib uni orqa qismidagi savollarga javob beradi. Javob to`g`rib o`lsa baliqni akvariumga , noto`g`ri bo`lsa dengizga qo`yib yuboradi.

Dars yakunida foydalanish uchun “Samalyot” metodi qo`l keladi. Bunda sinfni ikki guruhga ajratamiz va ularga bittadan otiqcha bir varoq qog`oz olishlarini aytamiz. Qog`ozga bugungi darsdan o`rgangan bitta metodini va tilak yozish kerak bo`ladi. Misol uchun, “Bugun darsda men sifatlarning uchta darajasi borligini o`rgandim. Sizga o`qish ishlarida doimiy omad tilayman va tabassum qilib yuring” shaklida bo`lishi mumkin. So`ngra o`quvchilar ikki guruh bir-biriga qarata samolyotlarini uchiradi. Bu o`yinda tartibni saqlash muhimdir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o`quvchilarning savodxon bo`lishiga, DTS talablariga qo`yilgan bilim va ko`nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o`ynaydi. Dars mashg`ulotlari davomida shu va shu kabi metodlardan foydalanish o`tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o`zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o`quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o`zining samarasini ko`rsatadi.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo`llash natijasida o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishlarini oshirishga, o`zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofida gilarning fikrlarini hurmat qilishga, o`zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.-T.:
“O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010,- 400 b.
2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O‘qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
- 3.Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan
foydalanish. T. : Musiqqa. 2009